

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LEKSIKASIDA YANGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasidagi yangi o‘zlashma so‘zlarning o‘rni va ahamiyati, ularning tillarimizga o‘zlashish jarayonlaridagi o‘ziga xosliklar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** izohli lug‘at, imlo lug‘ati, omonim so‘zlar, o‘z qatlam, elektron lug‘atchilik, president, spiker, parlament, online restaurant, site so‘zlari.

**Summary:** This article describes the role and importance of newly adopted words in the lexicon of the uzbek and karakalpak languages, as well as their peculiarities in the processes of their assimilation into our languages.

**Key words:** explanatory dictionary, spelling dictionary, homonyms, own layer, electronic dictionary, president, speaker, parliament, online restaurant, site words

**Аннотация:** В данной статье описаны роль и значение вновь принятых слов в лексиконе узбекского и каракалпакского языков, а также их особенности в процессах их ассимиляции в наши языки.

**Ключевые слова:** толковый словарь, орфографический словарь, омонимы, собственный слой, электронный словарь, президент, спикер, парламент, онлайн-ресторан, слова сайта.

Bugungi kunda lug‘atlarning ko‘pgina turlari yaratilgan. Biroq ularni mukammallashtirish, zamon ruhiga mos ravishda yangilash lozim. Masalan, o‘zbek tilining imlo lug‘atini olaylik. 1929-yildan hozirgacha o‘zbek tilining turli hajmli 20 dan ortiq imlo lug‘ati tuzilgan. Biroq ulardan mutaxassislar talabani qondirishi mumkin deb hisoblangan birgina 65 000 so‘z va so‘z shaklini qamrab olgan eng mukammal imlo lug‘ati<sup>1</sup> ham bugungi kunda o‘z ahamiyatini qisman yo‘qotdi deyish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan “O‘zbek tilining imlo qoidalari” orfografik me‘yorlarga o‘zgartirishlar kiritdi. Shundan buyon hanuz ba‘zi so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi haqida hattoki mutaxassislar orasida ham tortishuvlar bo‘lib turdi. Masalan, syujet – sujet, byudjet – budget, sentyabr – sentabr kabi.

Bularga chek qo‘yish maqsadida tilimizdagi barcha so‘zlarning yozilishini muayyanlashtirish maqsadida 2013-yil A.Madvaliyev, E.Begmatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan, soha mutaxassislari va omma talabini qondirishi mumkin bo‘lgan, 85 000 dan ortiq so‘zni qamrab olgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (-T., Akademnashr, 2013) shu kunning muhim yangiliklaridan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ibrohimov S., Begmatov E., Ahmedov A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T., Fan. 1976. (65 000 dan ortiq so‘z) Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida. 632-b.

Yangi ko'p jildli o'zbek tilining izohli lug'ati 1981-yil yaratilgan ikki jildli lug'at<sup>2</sup> ning to'ldirilgan, yoki qandaydir o'zgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug'atdir<sup>3</sup>. Yangi lug'atda so'zshakllar izohlanishi leksikografiyaning yangi yutuqlariga tayangan holda aks etgan. Ularga misol tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

a) bir umumiy lug'aviy ma'noga ega bo'lgan so'z shakllaridan dominantini tanlash, qolganlarini esa, ma'noda o'zgarish bo'lmagan hollarda bermaslik;

b) avvalgi lug'atda "eskirgan", "diniy", kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yangicha yondashuv;

c) o'zbekcha va umumturkiy leksikadan boshqa (arabcha, forsha, baynalmilal, ruscha va b. Tillarga mansub) so'z va terminlarga imkon qadar to'liq ma'lumot berish kabilar yangi lug'atning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi<sup>4</sup>.

O'zbek tilining sinonimlar lug'ati, sinonimlarning izohli lug'ati allaqachon yaratilgan<sup>5</sup>. Biroq ulardan ko'plab so'zlarning sinonimik qatorini, ma'nodoshlarning uslubiy farqlanishini topib kuzatishning imkoni yo'q. Shuningdek, hozirda barcha tilshunoslar tomonidan sinonimik qatordan farqli o'laroq graduonimik qator farq qilishi barcha mutaxassislar tomonidan tan olingan<sup>6</sup>. Bu lug'atning izohsiz namunasi Sh.Bobojonov va I.Islomovlar tomonidan yaratildi<sup>7</sup>. Shunga muvofiq o'zbek tilining tom ma'nodagi sinonimlar lug'atini mukammal tartibda yaratish, kengaytirish, shuningdek, til tizimidagi darajalangan so'zlarni izohli tartibda batafsil ishlab chiqish kun tartibidagi masala sifatida ko'tariladi. Xullas, shu kabi filologik lug'atlar muammolari 80-yillar lug'atchiligi davridan buyon yig'ilib qolgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

2023-yil A.Madvaliyev tahrirligi ostida to'ldirilgan va qayta ishlangan 6 tomndan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati" nashr etildi. Yangi nashrga so'nggi 10 yillikda tilimizga kirib kelgan ko'pgina so'zlarning izohi berilgan. "Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati" esa 1992-yilda nashr qilingan bo'lib, u 4 jilddan iborat edi. Bu lug'atda so'nggi yillardagi so'zlar, terminlar joy olmagan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi terminologiya markazi tomonidan izohli lig'atning yangi nashri tayyor bo'ldi. Bu ishga qoraqalpog'iston Respublikasi terminologiya markazi rahbari, professor Sh.Abdinazimov rahbarlik qilgan. Yangi izohli lug'at to'ldirilgan, bir muncha

yangi so'zlar bilan boyigan bo'lib 7 tomndan iborat va unda 60 mingdan ortiq so'z va terminlar qoraqalpoq tilining rivojlanishini yangi boshqichga olib chiqqan.

Leksikaning rivojlanishi ikki yo'nalishda boradi. Bir tomondan, leksika o'z taraqqiyoti jarayonida jamiyat taqqiyotida yuz bergan tarixiy o'zgarishlarni, yangiliklarni ifodalash orqali

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli -M., Русский язык. 1981.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.

<sup>4</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.12-jild. 2008, 65-bet.

<sup>5</sup> Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, 1974.

<sup>6</sup> Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt. dis. ... avtoref. - T., 1997. – 51-b.; Orifjonova Sh. O'zbek tilida leksik graduonimiya: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. - T., 1996.-27-b.

<sup>7</sup> Isломov I., Bobojonov Sh. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. O'quv qo'llanmasi. -T: Yangi asr avlodi, 2007. 52-bet.

boyiydi. Leksika boshqa tillarda qabul qilingan soʻzlar, yaratilgan yangi soʻzlar, yangicha atamalar, yangicha iboralar soʻzlarning oʻz maʼnolarini oʻzgartirishlari hisobiga boyiydi. Leksikada yuz bergan oʻzgarishlar til sistemasiga bogʻliq boʻlmaydi. Ikkinchi tomondan, leksika oʻzida mavjud boʻlgan soʻz vositalar yordamida yangi soʻzlar yasash hisobiga boyiydi.

Yuqorida taʼkidlangan jarayon til sathi (grammatikasi) bilan bevosita bogʻliq boʻladi. Til sathi bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan tarzda leksikaga kirib kelgan soʻzlar oʻzlari shakllangan maʼlum bir davrni, jamiyatni qisman ifodalaydi.

Leksikaning rivojlanishi, boyishi quyidagi yoʻllar bilan amalga oshadi:

1. Boshqa tillardan soʻzlar oʻzlashtirish yoʻli bilan;
2. Soʻzlarning oʻz maʼnolarini oʻzgartirishi:
  - a) soʻz maʼnosining toʻliq oʻzgarishi;
  - b) omonim soʻzlarning paydo boʻlishi;
  - d) soʻz maʼnolaring kengayishi;

Tillar bir-biridan butunlay ajralib qolmaydi. Bir til boshqa bir tildan tovushlar, soʻzlar va tushunchalarni oʻzlashtirishi mumkin.

Oʻzlashtirish, yaʼni oʻzlashtirilayotgan til tomonidan soʻz boyligini yanada oshirish, oʻzlashma neologizmlarni yanada mukammal, jarangdor boʻlishiga, yaʼni oʻzlashtirgan tilning qoidalariga tayanib boyitiladi.

**Oʻz qatlam** deganda shu tilniki boʻlgan soʻzlar va shular asosidagi yasashlar, shuningdek, oʻz qoʻshimchalari bilan boshqa til soʻzlaridan yasalgan soʻzlar tushuniladi. Oʻz qatlamga xos soʻzlar bilan oʻzlashgan qatlamga xos soʻzlarni oʻzaro farqlash hamma vaqt yengil boʻlavermaydi. Bularni oʻzaro farqlashda soʻzning emantic, morfologik, fonetik belgilarini hisobga olib ish koʻriladi.

Maʼlumki, tilshunoslikda XX asrdan buyon boʻlgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida til hodisalarini qiyoslab oʻrganish, kerakli oʻrinlarda andaza olish rus tilshunosligi nazariyasi asosida olib borildi. Hozirgi davr lugʻatchiligini esa faqat shu holat bilangina chegaralab boʻlmaydi. Bugungi kunda sanoati rivojlangan (kapitalistik) mamlakatlar orasida elektron lugʻatchilik va tilni avtomatlashtirish ishlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha taraqqiy etgan. Bu masala kun tartibiga qoʻyilar ekan, wordnet, elektron lugʻatchilik sohasida koʻproq AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, mamlakatlari hamda Rossiya lugʻatchilik tajribalari asosida ham ish koʻrish lozim boʻladi.

Tilni avtomatlashtirishning yana bir afzallik xususiyati shundaki, kishilarning maʼlum bir ish yuritish jarayonida til hodisalariga ehtiyoj sezganda imlo, talaffuz, maʼnodosh soʻzlar, maʼnodosh soʻzlardan uslubiy meʼyorga mos soʻzni tanlab berish kabi mukammal muharrir vazifalarini bajarib berishi koʻzda tutilgan. Kompyuter tili bilan aytganda, uzer (foydalanuvchi)ning davlat tilida ish yuritish uchun oʻnlab lugʻatlarning oʻzi bilan birga olib yurishiga zarurat qolmaydi. Bu dasturlarning koʻpchiligi yuqorida taʼkidlab oʻtilgan davlat tillarida allaqachon yaratilgan.

Istiqoldan soʻng belgilangan vazifalar borasida koʻpgina nazariy va amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Biroq yuqorida taʼkidlanganidek, mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratiladigan lugʻatlar koʻp yillik vaqtni talab etadi. Shunday ogʻir zahmat hisobiga yaratilgan 6 tomdan iborat “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ning yangi nashri<sup>8</sup>, va yaratilganligi, 12 tomdan iborat Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi<sup>9</sup> yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

<sup>8</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati. –T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 6 jild, 2023.

<sup>9</sup> Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. –T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.

Tilshunoslar har qanday til va lugʻat tarkibining eng muhim xususiyatini harakatda va oʻzgaruvchan ekanida deb hisoblaydilar.

Bu kabi til lugʻat tarkibini boyituvchi yoʻllardan biri boshqa tillardan soʻz oʻzlashish hisobiga tilning boyishidir.

Tilda soʻz oʻzlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, tovarlarning keng koʻlamda savdo-sotigʻi, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning maʼlum bir tuzumdan yangi shaklga oʻtishi kabilar bilan bogʻliq. Fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet tizimi asosida turli tilda soʻzlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida XX asrning 90-yillaridan soʻng dunyo miqyosida globallashtirilgan zamonaviy texnologiyalarga oid soʻz va atamalarning baynalmillalashuvi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, maʼnaviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi oʻzgarishlar bilan bogʻliq.

Bu davrdagi yangi soʻzlar oʻzlashishida, avvalo, siyosiy sohada oid boʻlgan prezident, spiker, parlament kabi soʻzlarning kirib kelishi kuchaydi, ayrimlarida ishlatish faollashdi. Shuningdek, kompyuter, display, fayl, monitoring, uzer, pleyer, peydjer kabi fan-texnikaga oid yangi soʻzlar, iqtisodiyotga doir auditor, barter, diler, broker kabi soʻzlar, madaniy sohaga oid xit, xit-parad, shou soʻzlari shular jumlasidandir.

Mustaqillikdan soʻng oʻzbek va qoraqalpoq tilining mavqeyi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy hayotdagi, davlat idoralarida ish yuritishdagi va matbuotdagi oʻrniga boʻlgan ahamiyat kuchaydi. Tilimizning goʻzal imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uning ifodaviyligi, jozibadorligini koʻrsatib berish, turli sohalariga oid xalqaro miqyosda umumlashayotgan soʻz va iboralarni tilimiz qonuniyatlariga mos holda olib kirish ishlariga alohida eʼtibor berila boshladi.

Tarixdan maʼlumki, uzoq davrlar davomida takomillashgan turkiy tillar xalqaro miqyosda oʻz oʻrniga ega boʻlgan. Oʻzbek, qozoq, qirgʻiz kabi tillar uchun bobo til hisoblangan turkiy tilda yirik-yirik nasriy va nazmiy asarlar yaratilgan, olamshumul ahamiyatga ega boʻlgan “Xamsa” kabi shoh asarlar yaratilgan.

Koʻp asrlik taraqqiyotga ega boʻlgan oʻzbek va qoraqalpoq tili koʻplab tillarning oʻzlashma soʻzlari hisobiga boyimoqda va koʻplab tillarga soʻz berib kelmoqda.

Soʻz oʻzlashish jarayoni har bir jonli tilga xos boʻlgan qonuniyat boʻlib, dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, maʼnaviy sohalar asosida toʻxtovsiz harakatda boʻladi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inlizcha soʻzlarning oʻzlashishi nafaqat oʻzbek tiliga, balki qoraqalpoq tiliga ham taʼsir qildi. Biroq rus tili ham ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlgani bois bu tilning taʼsirini tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatish mumkin.

Oʻzbek va qoraqalpoq tiliga inglizcha yangi oʻzlashma soʻzlarning oʻzlashish yoʻllari tulichadir. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan oʻzbekcha nomlanishga ega boʻlmasa yoki oʻzlashma soʻz tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan oʻzining ijobiy va samarali taʼsiriga ega boʻlsa, toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashtirish yoki aynan oʻzlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, chat (chat) – suhbat, bifshteks – (beefsteaks) – qovurilgan mol goʻshtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi, mani (money) – pul, boy-frend (boy-friend) – doʻst, oʻrtoq kabi soʻzlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi eʼtiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda. Bu kabi soʻzlar odatda tushuncha

ifodalashi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda o'z ekvivalentiga ega bo'lsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga ko'ra ma'noni tasviriy ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Bugungi kunda matbuot va jamoat mutaxassislarining fikir-mulohazalariga ko'ra, 40-50 yoshdagi kishilarning fikrlari hozirgi yoshlar nutqidan qoniqish hosil qilmayotgani va yangi o'zlashayotgan so'zlarga nisbatan salbiy munosabatda ekanligini aniqlashgan.

O'zlashma so'zning o'zlashgan tilda sinonimi bo'lsa, uning qo'llanishi uchun turli sabablar mavjud bo'ladi. Ya'ni, sinonim sifatida kirib kelgan so'z tilda termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma'no ifodalovchi so'z bo'ladi, yoki o'z zidlanuvchi so'zga nisbatan mavhum tushuncha ifodalaydi, ba'zan esa yoshlar orasida odat tusini olmoqda. Ingliz va rus tillari bir til oilasiga mansub bo'lgani bois inglizcha so'zlarning rus tilida o'zlashish jarayoni o'zbek tiliga nisbatan faol va keng qatlamni tashkil etadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, ko'pchilik inglizcha o'zlashma so'zlar tilda, avvalo, okkozional (muvaqqat) xarakterga ega bo'ladi, vaqt o'tishi bilan okkazional neologizmlar o'zining bilingvizm (ikki tillilik) xususiyatini kengaytira boshlaydi. Hozirgi paytda gazeta, jurnal, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda muxlisarlarni o'ziga jalb etadigan mavzular nomi inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlar bilan bog'liq holatlar tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosiy arboblardan, siyosatchilardan, iqtisodchilardan, jurnalistlardan ham o'zlarining nutqlarida sohalariga mos holatda o'rni bilan inglizcha o'zlashmalarga murojaat qilib turishadi.

Manbalarda so'z o'zlashtirishning ikki yo'li borligi ta'kidlanadi:

1) jonli so'zlashuv orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi so'zlar o'zbek va qoraqalpoq tiliga mahalliy aholining og'zaki nutqi orqali o'tadi. Masalan, online restaurant, site so'zlari o'zbek tilining jonli so'zlashuvidan onlayn, restoran, sayt deb talaffuz qilingan, keyinchalik o'zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o'zlashgan;

2) bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi matnni o'zbek va qoraqalpoq tiliga tarjima qilish yoki shu tillarda yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so'zlarini (ayniqsa, termin va atamalarini) ishlatish orqali bo'ladigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi katet, gipotenuza, adabiyotshunoslikdagi kulminatsiya, syujet kabi terminlar, ocherk, roman, povest kabi so'zlar shu yo'l bilan o'zlashtirilgandir<sup>10</sup>.

Ko'pgina tilshunoslar so'z o'zlashishining asosiy sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatishadi:

- xalqlarning tarixiy aloqasi;
- yangi predmet, jarayon va tushunchani nomlash zaruriyati;
- nutqiy tejamkorlik imkoniyatiga intilish;
- ikki tildan foydalanishning alohida turi;
- chet tili so'zlarini yangilik sifatida qo'llash;
- biror millatning o'ziga xos udum yoki rasm-rusumlariga nisbatan ko'r-ko'rona

ergashish.

Yoshlar nutqi kuzatiladigan bo'lsa, 14-17 yosh orasidagi o'spirinlar nutqida ayrim o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Sababi kompyuterda o'tirib, internet orqali dunyo yangiliklari bilan tanishib borishadi. Xorijiy tillarni puxta o'zlashtirib borayotgan yoshlar o'zlarining qiziqishlariga oid ingliz, rus yoki boshqa chet tiladgi ma'lumotlarni ham ko'zdan kechiradi. Ayniqsa, xorijiy tildagi kinofilm yoki musiqalarni tinglash orqali yoshlar nutqiga juda ko'plab xorijiy tildan kirib kelayotgan so'zlar o'zlashmoqda.

<sup>10</sup> Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005. 196-bet.

Umuman olganda, soʻz oʻzlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni boʻlib, oʻzbek va qoraqalpoq tili leksikasiga oʻzlashishi sezilarli darajada taʼsir qilgan 20 dan ortiq til oʻzlashmalari mavjud.

Maʼlumki, dunyo tillari orasida sof tilning oʻzi yoʻq. Tilning sofligi uning oʻz til soʻzlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. Tillarning oʻzaro integratsiyasi, birining ikkinchisiga taʼsir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda meʼyoriy, meʼyordan past va meʼyordan ortiq taʼsiri koʻzga tashlanib, soʻz oʻzlashishining meʼyordan past va meʼyordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida maʼlum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Oʻzbek va qoraqalpoq tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy oʻz ichki imkoniyatlari asosida soʻz yasash, oʻzga tillardan soʻz olish, eskirgan soʻzlarning chiqib ketishi kabi maʼlum bir oʻzgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib oʻtmoqda. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliqdir. Xalqlarning oʻzaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning integratsiyalashish holatiga sabab boʻladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak oʻzek va qoraqalpoq tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim oʻzgarishlarni hisobga olgan holda maʼlum bir davr bosqichlari asosida oʻrganish mumkin. Shu sababli ham tillarning oʻzaro taʼsiri, ularning aholi turmushida birgalikda, yonma-yon faoliyat koʻrsatishi uchun shu tillar bilan aloqa qiluvchi til egalarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida va kundalik hayotda aloqa qilishlari zarur deb hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., Toʻlaboyeva, R. 2021. Oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarning urgʻuli lugʻati, 2 jild. Toshkent.
2. Hamidulla Dadaboyev. 2019. Oʻzbek terminalogiyasi. Toshkent.
3. Antonova O. A. 2005. “Biz qaysi tilda gaplashamiz?”.
4. Oʻzbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar. Manzura Abjalova Xursandoy Geldiyev